

PSIXOLOGIYA O'QITISH METODIKASINING NAZARIY MASALALARI

Imomova Musharraf Parmonovna

Buxoro viloyati Qorako'l tumanidagi 45- umumiy o'rta ta'lif maktabi psixologi

Annotatsiya: Hozirgi davrda psixologiya fani keskin o`zgarishlarni boshidan kechiriyapti. Unda ichki tuzilishi, tarkibiy qismlari, ularning o`zaro uyg`unligi, mohiyati va talqin etilishi jihatidan qayta qurishlar, har qaysi narsa va insonga (jonli va jonsiz tabiatga) insonparvarlik psixologiyasi qonuniyatları hamda printsiplari asosida yondashishni tatbiq qilish namoyon bo`lmoga.

Kalit so'zlar: Assotsiatsiyalar, obrazlar, intuitsiya, anglashilmagan mayllar, irlsiy alomatlar

Narsa va hodisalarga, hayvonot va insoniyatga nisbatan yangicha yondashish, ularning shaxs tomonidan aks ettirilishini faqat onglilik holatidan kelib chiqqan holda ta'riflash bilan cheklanib qolmasdan, balki odamning ongsizlik va ongostlilik (g`ayri ixtiyoriylik) holatlari bu borada muayyan ahamiyat kasb etishini tushuntirish, unda bir holatdan ikkinchisiga uzlusiz o'tib turish tabiiy ravishda ro'y berishini ta'kidlash o`rlidir. Chunki shu davrgacha psixologiya fanida yetakchi prinsip sifatida "ong va faoliyat birligi" hisoblanib kelindi, binobarin, psixikaning har qaysi ko`rinishi, bosqichi, xususiyati, darajasi, xossasi, o`zaro ta'sirlanishi, bir—birini taqozo etuvchanligi faoliyat nuqtai nazaridan baholanishi an'anaga aylandi. Natijada onglilikdan chetlanish holatining inson hayoti uchun ahamiyati tadqiqotchining diqqat markazidan, izlanish mavzusidan ancha uzoqlashdi. Buning oqibatida shaxsning ongosti, ongsizlik holatlari, bularga uning moslashishi, intilishi, bilish sababi va mayli, ruhiy tayyorligi, ixtiyorsizligi, muvofiqlashuvi, to'siqlar va qarama—qarshiliklarga nisbatan ichki kurashi, shuningdek, uning mexanizmlari kabi muammolar yechimi uchun qay darajada ahamiyatli ekanligiga oqilona baho berilmadi. Aks ettirishning moddiy asoslariga suyangan holda tushuntirish, talqin qilish nazariyalari ilmiylik jihatdan qo`pol nuqsonlarga ega bo`lmasa—da, lekin psixikaning o`ziga xosligi, muomala xususiyatlari va ixtiyorsizlikni ta'riflashdagi cheklanganligi, bir tomonlamaligi natijasida ularning ko`p jihatlarini tushuntirish imkoniyati mumkin qadar pasaydi. Shu narsani alohida ta'kidlash kerakki, insonning hayoti va faoliyati o`zaro uzviy bog`liq, biri ikkinchisini taqozo qiluvchi uchta muhim manbadan, ya'ni ongsizlik, ongostlilik va onglilik holatlaridan tashkil topgan holda hukm suradi. Shuning uchun ham insonning bir kecha — kunduzdag'i umri ongsizlik, ongostlilik va onglilik holatlarining hukmiga tobelikda kechadi, ularning har qaysisi qanday vazifa bajarishidan qat'i nazar ongsizlik (faol hordiq) — ongostlilik (muvofiglashgan izlanish) — onglilik (aqliy zo`riqish, ixtiyoriy ijod) holatlaridan iborat uzlusiz halqa harakatlaridan tuzilgan bo`ladi. Insonning ongsizlik holatida ixtiyorsiz diqqat, ixtiyorsiz esda saqlab qolish, esga tushirish,

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

assotsiatsiyalar, obrazlar, intuitsiya, anglashilmagan mayllar, irsiy alomatlar, tasodify voqealar, tush ko`rishlar, xayoliy timsollar, insонning biron—bir narsaga psixologik jihatdan tayyorgarligi yuzaga keladi va ularning mahsuli xuddi shu jarayonda namoyon bo`ladi. Bularning kechishi unchalik ko`p fursatni talab qilmasa—da, lekin ma'lumotlarning to`planishi tabiiy omillar ta'sirida vujudga keladi, bu hol atrofdagi muhit bilan tanishishda muhim ahamiyat kasb etadi, ular jismoniy a'zolarning umrini o'zaytirishga xizmat qiladi. Ijodiy mantiqiy fikrlash shaxsga muvofiqlashgan xatti— harakatlar vujudga kelishiga puxta zamin hozirlaydi, ularni muayyan materiallar bilan ta'minlaydi. Odatda ongsizlik holati bilan ongli holat o`rtasida oraliq holat mavjud bo`lib, u ongostlilik atamasi bilan belgilanadi, uning inson hayoti va faoliyati uchun qanchalik ahamiyatli ekanligi o`rganiladi. Insonda kechishi mumkin bo`lgan faoliyat, muomala, xulq—atvor, ijodiy tashabbus, ilhomlanish kabi jarayonlar shaxsga tobora muvofiqlashib borsa, ularning boshqaruvi yengil ko`chsa, shakllangan, barqarorlashgan, mustahkam, puxta uquv va malakalar o`z vazifasini bajarishga kirishsa, bularning barchasi ongostlilik holatining bevosita hukmi ostida ro`y beradi. Hozirgi davrda psixologiya fanining muhim, dolzarb vazifalaridan biri — bu uning tadqiqot metodlari va prinsplarini nazariy hamda metodologik jihatdan chuqurroq tadqiq qilishdan iboratdir. Jumladan, kuzatish juda sodda, ikki ko`rinishga (kuzatish va o`zini o`zi kuzatishga) ega bo`lgan amaliy tajriba metodi tariqasida tahlil qilinmasdan, balki uning murakkablik xususiyatiga xos metodikalarni qamrab olish zarurligini ta'kidlab o`tish, natijalarni qayd qilishning o`ta murakkab texnologiyasi mavjudligini, ijtimoiy psixologik yondashuvda u alohida ahamiyat kasb etishini uqtirib o`tish maqsadga muvofiqliqdır. Psixologiya fanining nazariy muammolari qatoriga yana insонning inson tomonidan idrok qilinishini kiritish mumkin. Chunki insонning ayrim xususiyatlari uning yuz alomatlari, chehrasidagi o`zgarishlar, tana a'zolarining harakatlari orqali aniqlanadi. Odamning tashqi ko`rinishiga asoslanib, uning xarakter xususiyatlari, xislatlari yuzasidan ishonchli mulohaza bildirish ko`p asrlik tadqiqot tarixiga ega bo`lsa—da, lekin muammoning tub ilmiy negizi endigina kengroq o`rganilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Haydarov F.I. Xalilova N.I. Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi o'quv qo'llanma T.: "Aloqachi" 2007 y.
2. N.I.Xalilova Psixologiya o'qitish metodikasi fanidan uslubiy majmuasi 2007 y.
3. Hoshimova, N. A. (2020). Ingliz va o'zbek tillarining funksional uslublari. *Молодой ученый*, (19), 584-585.
4. Arzimatova, I. M. (2023). ETHICAL-AESTHETIC IN LEADING STAFF CONCEPTUAL BASIS OF CULTURE DEVELOPMENT AND MODERN

**"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION:
WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"**

APPROACHES. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(5), 498-502.

5. Arzimatova, I. M. (2023). ISSUES OF DEVELOPMENT OF MANAGEMENT CULTURE IN LEADERS. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(4), 177-180.
6. Dilorom, U., Gulhayo, T., & Ilmira, U. (2017). Ecological and parasitological assessment of drinking water quality of centralized water supply facilities. *European research*, (1 (24)), 109-110.
7. Zulaiho, D. (2021). The Introduction of a Credit-module System of Education in Uzbekistan Higher Educational Institutions. *Бюллетень науки и практики*, 7(6), 476-480.
8. Qizi, D. Z. M. M. (2020). Issues on teaching listening to students of non Philological higher educational institutions. *Проблемы современной науки и образования*, (3 (148)), 72-74.
9. Dadakhonova, Z. M. M. Q. (2022, September). FOREIGN EXPERIENCE IN THE EVALUATION SYSTEM: DEVELOPMENT OF TESTING IN FOREIGN COUNTRIES. In *INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS*. (Vol. 1, No. 4, pp. 158-162).
10. Qizi, D. Z. M. M. (2021). Formation Of Student's Communicative Competence By Means Of Modular-Rating Teaching Technology. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(06), 27-32.
11. Дадахонова, З. М. ВОПРОСЫ ОБУЧЕНИЯ АУДИРОВАНИЮ В НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ Дадахонова ЗМ Email: Dadakhonova17148@scientifictext.ru.
12. Bakhramjon, M., & Khalmuhammedova, T. M. (2023). Influence of Family Lifestyle, Medical-Biological and Socio-Hygienic Factors in the Formation of Children's Health. *INTERNATIONAL JOURNAL OF HEALTH SYSTEMS AND MEDICAL SCIENCES*, 2(4), 21-26.
13. Mamatkulov, B. M., Umurzakova, D. A., & Raxmatullayeva, M. K. (2023). Some Aspects of the Development of Osteochondrosis of the Spine. *INTERNATIONAL JOURNAL OF HEALTH SYSTEMS AND MEDICAL SCIENCES*, 2(4), 15-20.
14. Уразалиева, И., Маматкулов, Б., Тураев, Б., & Рахматуллаева, М. (2022). ДУНЁДА СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ТИЗИМИНИ РАКАМЛАШТИРИШ ВА УНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙУНАЛИШЛАРИ.
15. Косимхонова, М. К., & Авезова, Г. С. (2018). ПОДГОТОВКА СПЕЦИАЛИСТОВ СЕСТРИНСКОГО ДЕЛА В МЕДИЦИНСКИХ КОЛЛЕДЖАХ. In *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY* (pp. 113-114).

**"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION:
WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"**

16. Касимова, Д. А., & Нематов, А. А. (2019). ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИММУНОПРОФИЛАКТИКИ НА ПРИМЕРЕ ГРИППА. *Интернаука*, 15(97 часть 1), 38.

